

BIR NECHTA JINOYAT SODIR ETISHNING NAZARIY JIHATLARI.

Tolibova Sevinch Orifjon qizi

Yuristpurudensiya: Biznes huquq Yo'nalishi: 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Maqolada, bir nechta jinoyatlarni sodir etgan shaxsga qanady qilib adolatli va muvofiq jazo belgilanish kerakligini, jazo tizimi va uning murakkab jihatlarni o'rganadi. Jazo tayinlashning ijtimoiy, huquqiy va etik ahamiyati hamda muammolar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlari: *Bir nechta jinoyatlar, takroriy jinoyatlar, retsdiv jinoyatlar.*

НАЗВАНИЕ СТАТЬИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НЕКОТОРЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ.

Абстрактный. *В статье рассматривается необходимость справедливого и адекватного наказания для лица, совершившего несколько преступлений, уголовно-исполнительная система и ее сложности. Рассмотрены социальная, правовая и этическая значимость и проблемы назначения наказаний.*

Ключевые слова: *Совокупность преступлений, рецидивизм, рецидивизм.*

ARTICLE NAME: THEORETICAL ASPECTS OF SEVERAL CRIMES.

Abstract. *The article examines the need for a fair and appropriate punishment for a person who has committed multiple crimes, the penal system and its complexities. The social, legal and ethical importance and problems of sentencing are considered.*

Key words: *Multiple crimes, repeated crimes, recidivism.*

KIRISH

Bir nechta jinoyat deganda, shaxsning sud hukmi asosida aniqlangan ikki yoki undan ortiq jinoyatlarni, ulardan birortasi uchun sudlangan yoki sudlanmaganligidan qat'i nazar sodir etishi tushuniladi.

Bir qancha jinoyat sodir etganlik uchun jinoyat huquqiy ta'sir choralarni qo'llashda bir shaxs tomonidan kamida ikkita jinoyat sodir qilingan bo'lishi kerak. Jinoyat qonuni nuqtai nazaridan, keying jinoyatlar qanday miqdorda sodir etilganligidan qat'i nazar jinoyat faoliyat sifatida ifodalovchi ushbu hodisaning huquqiy tabiati o'zgarmaydi.

Bu borada bir qancha jinoyatlar tushunchasini V.P.Malkov ancha keng talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, "bir qancha jinoyatlar deb shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilguncha, bir vaqtda yoki ketma-ket, ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etganligi yoxud oldingi jinoyat uchun hukm etilganidan keyin yangitdan jinoyat sodir etilishi va ikkita jinoyat o'rtasida jinoyat huquqiy muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa, shuningdek, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun boshqa

to'siqlar bo'lmasa, bir qancha jinoyat sodir etish deb topiladi."¹⁵⁵ Shu kabi bir qancha olimlarining o'z fikr va mulohazalari mavjud. Masalan, K.P.Pankoning fikricha esa "shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoyatlarni sodir qilishi, agar ular uchun yuridik oqibatlarini bekor bo'lmagan yoki jinoiy ta'qib qilish uchun jinoyat-protsessual to'siqlar bo'lmasa, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining bitta normasi bilan qamrab olingan yoki olinmaganidan qat'i nazar bir qancha jinoyat sodir etilgan deb hisoblanadi."¹⁵⁶

MAVZU DOLZARBLIGI. Jinoyat sodir qilgan shaxs uchun adolatli jazo tayinlanmasligi jinoyat qonunining qonuniylik, odillik va ayb uchun javobgarlik prinsiplarining buzilishiga olib keladi.

Jinoyat huquqida jazo tayinlash qoidalari va jinoyatning kvalifikatsiyasi bir jinoyatni boshqasidan farqlash imkonini beradi.

Jazo tayinlash sud faoliyatining eng ma'suliyatli bosqichi bo'lib, unda jinoyat qonunining adolatlilik prinsipi amalda namayon bo'ladi va odil sudlovni amalga oshirish darajasi yuzaga chiqadi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan uning shaxsini, sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligini, jinoyat tufayli keltirilgan zararining miqdorini va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olgan holda adolatli jazo tayinlash jinoyat sodir qilgan shaxs o'z qilmishiga yarasha jazosini olganlik hissini ham uyg'otadi. Ana shunday hisning paydo bo'lishi jazo maqsadining dastlabki, ammo eng muhim yutug'i hisoblanadi.

Takroriy jinoyat sodir etish haqida O'zbekiston Jinoyat Kodeksining 32- moddalarida batafsilroq ko'rib chiqiladi. Takroriy jinoyat sodir etish asosan jinoyatchining avvalgi jinoyati uchun jazoni o'tashdan so'ng yana yangi jinoyatni amalga oshirishini nazarda tutadi. Takroriy jinoyatning jazosi ko'proq bo'lishi mumkin, chunki jinoyatni yana bir bor sodir qilish jinoyatchining niyatini va xavfini oshiradi.

Takroriy jinoyatni sodir etish uchun javobgarlik

O'zbekiston Jinoyat Kodeksining 32-moddasida ko'rsatilgan holatda, agar shaxs takroriy jinoyatni sodir etsa, uning jazosi odatda og'irroq bo'lishi mumkin. Misol uchun, avvalgi jinoyatni sodir etgan va jazolangan shaxs yana yangi jinoyatni amalga oshirsa, u yanada qattiqroq jazoga tortilishi mumkin.

Jinoyat kodeksining Maxsus qismining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoiy qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun ham shaxs sudlangan bo'lmasa, jinoyatlar majmui deb topiladi.

Masalan, Farhod o'ziga qarashli do'konni o'g'irlik qilib, katta miqdorda pul va qimmatbaho buyumlarni olib ketgan. Keyin esa, o'zini aybdor deb bilmaslik uchun do'kondagi kameralarni yo'q qilish maqsadida ularga zarar yetkazgan. Bir necha kun o'tgach, Farhod yana bir jinoyatni amalga oshirib, bir kishi bilan janjallashib, uni jismoniy zo'ravonlik bilan jarohatlagan.

¹⁵⁵ Малков В.П. Множенность преступлений и её формы по уголовному праву. Казань. 1982. С.12.

¹⁵⁶ Панько К.А. Вопросы общей теорий рецидива в уголовном праве. Воронеж. 1988. С.68

Bu holatda, Farhodning har bir jinoyati — o'g'irlik, kameralarni yo'q qilish, jismoniy zo'ravonlik — alohida jinoyat sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ammo bularning barchasi bir shaxs tomonidan amalga oshirilganligi sababli, bu jinoyatlar jinoyat majmuiga kiradi.

Jinoyat majmuida sud Farhodning barcha jinoyatlarini birlashtirib ko'radi va ular uchun yakuniy jazo belgilaydi. Ya'ni, har bir jinoyat uchun alohida jazolar belgilangan bo'lsa-da, ularni birlashtirib, og'irroq jazo chiqarilishi mumkin. Bu majmui sud tomonidan jinoyatchining barcha qilmishlariga qarab muhokama qilinadi.

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi.

Besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni:

a) ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi.

Sudning hukmi bilan shaxs o'ta xavfli retsidivist deb topilishi mumkin.

Shaxsni o'ta xavfli retsidivist deb topish to'g'risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning boshqa davlatlar sudlarining hukmlari bo'yicha sudlanganligi ham hisobga olinishi mumkin.

Shaxsni o'ta xavfli retsidivist deb topish to'g'risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, shuningdek qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatlarining o'tib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi.

Xulosa. Bir nechta jinoyat tushunchasi jinoyat huquqida muhim huquqiy institut bo'lib, u shaxsning bir vaqtda yoki ketma-ket bir nechta jinoyatlarni sodir etishi bilan bog'liq. Bu holat, jinoyatchining jinoyat huquqiy javobgarligini aniqlashda va jazo tayinlashda alohida o'rin tutadi. Jinoyat huquqining adolatlilik prinsipi asosida, har bir jinoyat uchun alohida jazo belgilanishi mumkin, ammo ular birlashtirilgan holda, jinoyatchining barcha qilmishlariga nisbatan majmui tarzida yakuniy jazo tayinlanadi.

Takroriy jinoyat va reatsidivistik jinoyatlar uchun jazolar ko'pincha og'irroq bo'ladi, chunki jinoyatchining jinoiy niyati va xavfi oshadi. O'zbekistonda jinoyatchining ilgari sodir etgan jinoyati uchun jazolanganidan so'ng yangi jinoyat sodir etishi reatsidiv deb hisoblanadi va bunday shaxslar uchun jazo yanada qattiqroq bo'ladi. Shuningdek, o'ta xavfli retsidivist tushunchasi jinoyatchining ilgari sodir etgan og'ir jinoyatlari va jazo o'tayotganlik holatiga asoslanib, ularga alohida xavf darajasi belgilanadi.

Shu tarzda, bir nechta jinoyatlar, takroriy jinoyatlar va reatsidivistlik jinoyat huquqini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular jinoyatning jiddiylikini va jinoyatchining

xavfli xulq-atvorini baholashda muhim rol o'ynaydi. Adolatli jazo tayinlash, shaxsning jinoyatiga nisbatan uning shaxsiy holati va jinoyatlarning miqdori hamda jiddiyligiga qarab amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Малков В.П. Множенность преступлений и её формы по уголовному праву. Казань. 1982. С.12.
2. Панько К.А. Вопросы общей тиорий рецидива в уголовном праве. Воронеж. 1988. С.68
3. M.X Rustambayev. Jinoyat huquqi. 2018.
4. Kriminologiya:Darslik S.Zaripov, Y.S.Po'latov, G.A.Avanesov
5. T.S.Sharipov, M.M.Tursunova 2022.Меры профилактики и борьбы с насильственной молодежной преступностью.